

KONSTITUTSIYA – BIZ – JAMIYAT

Maxmudjonova Shodiya Adxam qizi

O'zbekistan davlat jahon tillari universiteti sharq filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

Elektron pochta:mahmudjonovashodiya12@gmail.com

Annotatsiya Hozirgi kunda demokratik davlatni barpo etish uchun, avvalo, jamiyatdagi insonlarning huquq va burchlari konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan bo'lishi shart. Konstitutsiya shunchaki qoidalar jamlanmasi bo'libgina qolmay, balki insonni huquqiy tomondan himoyalay oladigan hujjat bo'lishi kerak. Insonning huquqlari poymol bo'lgan davlatda hech qachon kelajakka tomon siljish bo'lmaydi.

Аннотация:наше время для построения демократического государства, прежде всего, должны быть конституционно закреплены права и обязанности людей в обществе. Конституция должна быть не только сводом правил, но и документом, способным защитить человека с юридической стороны. Никогда не будет прогресса в будущее в стране, где нарушаются права человека.

Annotation:Nowadays, in order to establish a democratic state, first of all, the rights and duties of people in the society must be constitutionally strengthened. The Constitution should not only be a set of rules, but also a document that can protect a person from the legal side. There will never be progress towards the future in a country where human rights are violated.

Kalit so'zlar: konstitutsiya, huquq, burch, modda, demokratiya, demokratik davlat, jamiyat, davlat, fuqaro, qonuniy harakat, prezident, yoshlar, ta'lim.

Key words: constitution, right, duty, democracy, democratic country, society, state, people, action of law, president, adults, education.

Ключевые слова: конституция, право, обязанность, статья, демократия, демократическая страна, общество, государство, граждане, легальное действие, президент, молодёжь, образование.

Har bir davlat mustaqillikka erishganidan so`ng birinchi navbatda o`zini huquqiy jihatdan barqarorlashtirishga harakat qiladi. Bu holat O`zbekiston uchun ham notanish holat emas, albatta. Mustaqillikka erishilgandan so`ng davlatimiz o`zining ramzlarini qabul qilishni boshladi. Shu o`rinda Konstitutsiyani ham chetda qoldirmadi. Bunday ramzlar kelajakda O`zbekistonni jahon miqyosiga olib chiqish uchun juda katta xizmat qildi va hozirgi kunda ham xizmat qilib kelmoqda. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1991- yil 8- dekabrda O`zbekiston Respublikasi Oliy kengashining 11-sessiyasida qabul qilingan. Shundan so`ng 8- dekabr O`zbekistonda Konstitutsiya qabul qilingan kun sifatida nishonlab kelinmoqda. Konstitutsiyamiz hozirgi kundagi shakliga kelguncha juda ko`p o`zgartirishlar kiritilgan. Shu o`rinda, O`zbekistonni demokratik davlatga aylantirish uchun qilingan birinchi qadamlarni yodga oladigan bo`lsak, O`zbekiston Konstitutsiyasining ishlab chiqilishiga ilk yondashuvlar 1990-yil 20-iyunda “Mustaqillik Deklaratsiyasi”ning qabul qilinishi bilan chambarcha bog`liq. O`zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug`niyevich Karimov tomonidan alohida ishchi guruh tuzib chiqildi va ularning oldiga quyidagi vazifalarni belgilab berildi:

-konstitutsiyaviy rivojlanishning jahon tajribasini o`rganib chiqish;

-boshqa mamlakatlarning inson huquqlari borasida, demokratiya va qonunchilik sohasida qo`lga kiritgan yutuqlarini hisobga olinishi;

-keng xalq ommasi diliga yaqin va tushunarli bo`lgan siyosiy-yuridik hujjatning yaratilishi

Ushbu topshiriqqa muvofiq, AQSH, Fransiya, Kanada, Germaniya, SHvetsiya, Yaponiya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Misr, Hindiston, Turkiya, Eron, Vengriya, Bolgariya, Litva davlatlarining konstitutsiyalari chuqur o`rganib chiqildi va qiyosiy tahlil qilindi. Shu tariqa O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini yaratish salmoqli nazariy, konseptual zaminga tayandi. Shundan so`ng bu loyihaning turli variantlari namoyish etildi. Jumladan, 1991-yil oktabr-noyabr oylarida ishlab chiqilgan loyiha muqaddima, 6 bo`limga taqsim qilingan 158 moddani o`z ichiga olgan. Bundan keyingi urinishlarda 1992-yilning bahorida taqdim qilingan loyiha 149 moddadan iborat moddalar jamlanmasini o`z ichiga olgan edi. Yuqorida ta`kidlab o`tilganidek, Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqish uchun juda ko`p loyihalar ishlab chiqilgan va hozirgi holatdagi

Konstitutsiya 1992-yil 8-dekabrda O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida qabul qilindi. Sessiya ishtirokchilari yakdilik bilan 6 bo`lim, 128 moddadan iborat Konstitutsiyani qabul qildilar. O`zbekistonning asosiy qonuni, Respublikada avvalgi yillarda qabul qilingan qonunlardan farqli o`laroq, demokratik yo`l bilan tayyorlangan bo`lib, unda yillar davomida sinovdan o`tgan umuminsoniy qadriyatlar o`z aksini topganligi, u ko`plab taraqqiy etgan davlatlarning tajribalarini o`z ichiga singdirganligi bilan alohida e`tiborni tortadi. Shunday qilib, suveren, demokratik O`zbekiston Respublikasining birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Asosiy qomusimiz davlat mustaqilligimizning mevasi sifatida dunyoga keldi va xurligimiz, ozod-erkinligimizning, farovon turmush tarzimizning qalqoni sifatida yashamoqda.

Konstitutsiya va jamiyat o`rtasidagi bog`liqlik. Konstitutsiyaning 3-bo`limi “Shaxs va jamiyat” deb nomlanadi va bu bo`limda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqli ekanligi ta`kidlab o`tilgan. Shuningdek, bu bo`limda xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz ekanligi va davlat himoyasidaligi, mulkdor mulkiga o`z xohishicha egalik qilishi, foydalanishi va uni tasarruf etishi alohida keltirib o`tiladi. Konstitutsiyaviy tuzumni zo`rlilik bilan o`zgartirishni maqsad qilib qo`yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ`ib qiluvchi, xalqning sog`lig`i va ma`naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi. Konstitutsiyada ko`rsatilishicha, ota-onalar o`z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar, shuningdek, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o`z ota-onalari haqida g`amxo`rlilik qilishga majburdirlar.

Jamiyat hayotidagi tub o`zgarishlar, ayniqsa, ta`lim sohasida bo`lib o`tayotgan juda katta islohotlar mustaqil O`zbekistonning yorqin kelajagi uchun qurayotgan poydevorlaridan biri hisoblanadi. Bunday islohotlar konstitutsiyada belgilab qo`yilgan “Ta`lim to`g`risida”gi qonun bilan boshlanadi. Bilamizki, o`quvchilarning bepul ta`lim olishi qonunan konstitutsiyada belgilab qo`yilgan. Agar boshqa davlatlarning ta`lim sohasiga nazar soladigan bo`lsak, hech qaysi davlatda o`quvchilarning bepul ta`lim olishi

konstitutsiyada belgilab qo'yilmaganiga guvoh bo'lamiz. Bizda buning qonunan mustahkamlab qo'yilgani albatta jamiyat, fuqarolar uchun anchagina foydalidir. Bundan tashqari, davlat mulkining xususiylashtirilishi ham qonuniy jihatdan mustahkamlab qo'yilmoqda va bu sohada juda ko'p islohotlar bo'lib o'tmoqda. Ayni paytda davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalar va tashkilotlar xususiylashtirilmoqda. 2012 -yilda qabul qilingan "Xususiylashtirish to'g'risida"gi qonunimizda ham bu norma belgilab qo'yilgan. Qonunda aytilganki, bevosita davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlarning tashabbusi bilan xususiylashtirish natijalari bekor qilinmaydi. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi qonun 1991- yilda noyabrda qabul qilingan bo'lsa, dastavval kichik davlat mulklari, keyinchalik davlat ulushi yuqori bo'lgan o'rta va yirik strategik ahamiyatdagi ayrim obekt hamda mulklar bosqichma-bosqich xususiylashtirilmoqda. Hozirgi jarayonda yirik davlat obektlari ham xususiylashtirilmoqda. Barchasi auksion orqali amalga oshirilmoqda. Deylik, o'tgan yili DXXning sobiq binosini xususiylashtirish jarayoni ham OAVda keng yoritildi. Bugungi kunda bu jarayon Davlat mulkini boshqarish agentligi tomonidan belgilangan tartibda auksion orqali amalga oshirilyapti, ya'ni shaffoflik ta'minlanmoqda. Xususiylashtirilgan mol-mulk qonuniy tartibda qo'lga kiritilgandan so'ng o'z-o'zidan xususiylashtirish natijasi qachondir bekor bo'lib ketmasligi kerak, shuning uchun ham bu huquq konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo'yilmoqda.

Yana bunday misollarni juda ko'p keltirishimiz mumkin. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, bugungi kunda ishlab chiqilayotgan qonunlar faqat va faqat insonlarning hayotini farovonlashtirish uchun xizmat qilmoqda. Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan shu va shu kabi qonunlar inson huquqlaridan kelib chiqqan holda tuzilgan va bugungi kunga kelib bularning barchasi o'z natijasini ko'rsatmoqda. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin, konstitutsiyamizda keltirib o'tilgan barcha moddalar jamiyat hayotida o'z o'rniga ega va mustaqil O'zbekiston tanlagan yo'l yorqin kelajakka olib boradi...

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O`zbekistonning eng yangi tarixi.Tuzuvchilar: N.Jo`rayev, T.Fayzullayev; Tahrir hay`ati: A.Azizxo`jayev, B.Ahmedov, S.Kamolov va boshqalar. “ Sharq” nashriyot-matbaa konserni. 2000-yil.

2.[Mustaqillik O`zbekistonda ta`lim-tarbiya tizimidagi islohotlar. \(abiturtest.uz\)](http://abiturtest.uz)

3.[O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi \(constitution.uz\)](http://constitution.uz)

4.[O`zbekiston Konstitutsiyasi haqida barcha ma`lumotlar \(sputniknews-uz.com\)](http://sputniknews-uz.com)